

TEXNOLOGIYA FANINING INNOVATSION YO'NALISHLARI

Hakimova Guljaxon

Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahar
10- mактабning texnalogiya fani o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kun zamonaviy kadrlari tomonidan olib borilayotgan izlanishlar natijasida maktab o'quvchilariga texnologiya fanini o'qitish bo'yicha turli tushuncha, usullar, innovatsion g'oya va takliflar berilib, ularni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Konstruktsiya, ta'lif, texnologiya, dizayn, inovatsiya.

Harakatlar strategiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15- martdag'i "Umumiy o'rta ta'lif to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli, 2017-yil 6- aprelda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifining davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarorlari qabul qilinganligi ta'lif tizimini yanada takomillashtirish hamda uzviyligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda deyarli barcha fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan keng qo'llanilib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalar ta'lif taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lif tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzuksiz ta'lif tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish xamda ta'lif samaradorligini oshirish davlat siyosat darajasiga ko'tarildi. «Ta'lif to'grisida»gi Qonun va «Kadrlar taylorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzuksiz ta'lif tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ma'lumki, uzuksizlik va uzviylik ta'lif tizimda ortiqcha ishkoriylikka chek qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Hozirgi kunda innovatsion ta'lif jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lifning samaradorligini ko'tarish kundan -kunga kuchayib bormoqta. Har qanday samarador bo'lgan dars rejası to'rt asosiy elementni o'z ichiga qamrab olishi lozim: Qiziqtiruv-motivatsiya Taqdimot-prezentatsiya Amaliyat-praktika Natija-o'zlashtirish darajasini tekshirish. Ushbu to'rt asosiy element o'qituvchiga katta imkoniyatlar yaratib, o'quvchilar bilan mulaqot qilishga yordam beradi va o'quvchilarning darsda foal ishtiroy etishini ta'minlab beradi. Qiziqtiruv. Dars rejasining ushbu qismida o'quvchilar bilan dars mavzusiga bog'liq bo'lgan qisqa bir o'yin yoki tadbir o'tkazish, bu ularning diqqatini tortadi va mavzuni o'rganishi uchun qiziqish yaratadi. Bu bosqichning davomiyligi kopincha 4-5 daqiqa atrofida bo'lishi va uning o'rganilishi lozim bo'lgan mavzuga mos kelishi zarur. Taqdimot. Dars rejasining bu qismi yangi mavzu bilan bog'liq yangi materiallar berish yoki mavzuning bir qismi bilan bog'liq mag'lumatlar, dalillar, qoidalar taqdim etish faoliyati bilan uzviy bog'liqidir. Bunda maqsad o'quvchilarning bilgan narsalarini asos qilib olgan holda bilmaganlari haqidagi bilimlari darajasini oshirishdir. Agar oldingi darsda o'tilgan materiallarni qaytaradigan bo'lsak, ularni bu safar yangi ijodiy nuqtayi nazardan yaratishimiz lozim boladi. Amaliyat. Darsning ushbu qismida o'quvchilarning oldingi bosqichda olgan bilimlari asosida ularni amaliy fikrashga

o'rgatish. Bunday amaliy mashg'ulot turlarini darsdan oldin tayyorlab kelish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida o'quvchining bajarayotgan ishlarini diqqat bilan kuzatish,yangi malumotlarning tug'ri o'zlashtirilayotganiga ahamiyat berish zarur. Natija. Mavzuning yangi o'rganilgan materiallarini o'quvchilar bilan mulaqot qilgan holda muhokama qilish va bu jarayonga ularni iloji boricha ko'proq jalb qilish yaxshi natiyjalarga olib keladi. Agar biror bir qoida ,dalil , qonun , ko'rsatkish yoki tartibot o'quvchilarga tushinarsiz bo'lib qolsa, ularni tushintirishga harakat qilish va ularning ko'p moxiyatini anglaganliklarini his qilishi kerak. Yuqorida aytib o'tilgan taqdimot-prezentatsiya bo'limida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarga darsni tushinarli va aniq, qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Bugungi kunda axborot ko'lami ju'da kengayib ketti. Dars mavzularini kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa dars esta qolishiga erishilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib fanlar a'ro bog'langan holda ekologik gigienik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur. Innovatsiya ingilizcha yangilik kiritish , yangilik degan ma'noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha "texnos" –san'at, mahorat va "logos" - fan so'zlaridan olinib innovatsion texnologiya ta'lim tarbiya shakillari, metodlari va usullariga yangicha yondashish degan ma'noni bildiradi. Keng ma'noda qaraganda ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish - bu pedagogik innovatsiyadir. Pedagogik innovatika pedagogik yangiliklarni baholash, uni pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirilishiga erishish, nig'oyat pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limida texnik modellash – uchadigan, suzadigan, yuradigan texnik o'yinchoqlarni, shunungdek chizmali namuna asosida modellarni yasash mehnatining maxsus turi sifatida ajratilgan. Dastlabki darslardayoq o'quvchilar tabiiy materiallar, qog'oz va karton, gazlama, turli materiallar bilan ishlar ekanlar, texnik elementlar bilan tanishadilar, qism va detal, oddiy yig'ish, detallarni biriktirishning qattiq, suriladigan, olinadigan usullari va buyumlar haqidagi tasvvurga ega bo'ladilar. O'quvchilar detallarni biriktirishning turli usullari shunungdek, mix bilan tirqish qoldirib biriktirish kabilar bilan tanishadilar. Bir yoki bir nechta detallardan tashkil topuvchi oddiy narsalar misolida bolalar pishiqlikni oshirish, ishqalanishning zararli tahsirini bartaraf etib, foydali tafsirdan foydalanish, o'zları ishlayotgan materialarning tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. O'quvchilarda narsalarni yasash ustida ishlash tartibini mo'ljallah, tayyorlash, yig'ish, bezash, amalda tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish kabilar haqida tasavvuri shakllanadi. Bularning barchasidan keyinchalik modellar hamda texnik o'yinchoqlarni yasashda foydalaniladi, ular bolalarning ijodiy fikrini o'stiradi, bolalarga to'plangan mehnat tajribalarini atrofdagilarga texnika bilan bog'lashlariga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga assoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan Mehnat tahlimi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq, mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashning keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qilinadi. Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari (qog'oz, karton, yumshoq sim, yog'och, gazmol va boshqalar) bilan; tabiiy va sun'iy xom-ashyolar (maxsus loy, yog'och va plastmassalar, plastelin, yelim va boshqalar) bilan, keng istemol mollari va xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektr, radiotexnika to'plamlari va hakazolar bilan ishlashga o'rGANADILAR. Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l asboblari bilan ishlash, har xil xom ashylardan foydalanishning mahlum tajribasini tuplashga nmkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va mahnosini tushunishga, mehnat

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY,2024

kishilariga hurmatda bo'lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishlarini shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.
2. Tohirov O'.O. va boshqalar. Texnologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: "ILM-ZIYO" nashriyot uyi, 2019.-160 b.
3. O.A.Qo'ysinov, O'.O.Tohirov va boshqalar. Elektrotexnika va elektronika asoslari. Metodik qo'llanma. – T.: "Delta print" MCHJ, 2017.-116 b.
4. O.A.Qo'ysinov, O'.O.Tohirov va boshqalar. Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. – T.: "Delta print" MCHJ, 2017.-64 b.
5. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2017.-140 b.
6. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.-72